

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI**  
**OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

**NIZOMIY NOMIDAGI**  
**TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**

**KASB TA‘LIMI FAKULTETI**  
**“Ishlab chiqarish texnologiyalari” kafedrası**

# **Kostyum kompozitsiyasi asoslari**

fanidan

laboratoriya mashg'ulotlari uchun uslubiy ko'rsatma

**(5140900-Kasb ta'limi (5810300-Servis))**

Mazkur uslubiy qo'llanma «Kostyum tarixi va kompozitsiyasi» fani dasturi xamda o'quv rejasi asosida tayyorlaigan va Servis yo'nalishi boyicha ta'lim olayotgan talabalarga mazkur fan boyicha yetarli darajada bilimlar berishni ko'zda tutadi.

Uslubiy qo'llanmada dastur asosida belgilangan mavzular boyicha laboratoriya ishlarini bajarish boyicha yo'riqnomalar berilgan, mazkur fan boyicha talabalar egallashlari kerak bo'lgan bilim va ko'nikmalar uchun yetarli darajada ma'lumotlar berilgan.

Shu bilan birga qo'llanmada xar bir laboratoriya ishi boyicha ishning maqsadi, ishning mazmuni, ishni bajarishga tayyorgarlik uchun savollar, asboblari va materiallar, bajarish boyicha uslubiy ko'rsatmalar va nazariy ma'lumotlar, adabiyotlar royxati xamda bajarilgan ish boyicha xisobotni tuzish tartibi batafsil yoritilgan.

Pedagogika oliy o'quv yurtlarining «Kasb ta'limi (Servis)» yo'nalishi boyicha ta'lim olayotgan talabalar uchun o'quv qo'llanma sifatida mo'ljallangan.

Muallif: Nizomiy nomidagi TDPU katta o'qituvchisi

Gaipova N.S.

Nizomiy nomidagi TDPU o'qituvchisi F.A.Umarova

O'quv qo'llanma Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat pedagogika universitetining ilmiy - metodik kengashida kurib chikilgan va nashrga tavsiya kilingan.

2013 yil « \_\_\_\_\_ » \_\_\_\_ dagi \_\_\_\_\_ -sonli majlis bayoni.

**Toshkent**

# 1— Labaratoriya

## Kompozitsiya kategoriyalari

(Kostyum silueti, kiyimdagi asosiy chiziqlar, kiyimning massasi)

### Reja

1. Kiyimning obrazli ifodaviyligi.
2. Kompozitsiya kategoriyalari
3. Kostyum silueti.
4. Kompozitsiyaning xususiyatlari
5. Kostyum kompozitsiyasidagi asosiy chiziqlar.
6. Kastyum kompozitsiyasida massa.

### Kiyimning obrazli ifodaviyligi.

**Kompozitsiya** – badiiy asar shaklining barcha elementlarini mazkur asarning obrazli g'oyaviy-badiiy mazmunini ifoda etuvchi uzviy bir butunlikka birlashtirish

**Kiyim kompozitsiyasi** — kiyim shakli barcha elementlarini uning mazmunini ifoda etadigan birlikni barpo etilish vositalari yordamida tuzib chiqish. Kiyimning mazmuni uning nimaga mo'ljallanganiga qarab belgilanadi. Kiyim shaklining kompozitsiyasi uning mazmunini ochib berishga olib kelishi kerak.

Xar qanday badiiy asarda uni tashkil etgan barcha elementlar o'rinli bo'lishi kerak. Ortiqcha yoki muallif fikrini yetarlicha yaxshi ifoda etmaydigan nimaiki bo'lsa, xammasi olib tashlanishi kerak. Kompozitsiya maxsus badiiy tildan iborat bo'lib, uning yordamida san'atkor borliqni aks ettiruvchi g'oya va tuyg'ularni tasvirlab beradi. Badiiy obraz borliq in'ikosining estetik shakli xisoblanadi. Kiyimning badiiy obrazi bu kiyimning konkret vazifasini va borliqni aks ettiruvchi asosiy g'oyani ifodalovchi modelning umumiy qiyofasi. San'atkor yaratgan xar bir modelning obrazi insonga ta'sir etishga qodir emotsional va ta'sirchan bo'lishi kerak. Kiyim xar yerda va xamma vaqt odam bilan birga bo'lib, unga ishonch, qadr-qimmat, optimizm tuyg'ularini baxsh etishi yoki aksincha, uni tushkunlik va xafalik xolatiga duchor qilishi mumkin.

Shunday qilib, kiyimning obrazli ifodaviyligiga kompozitsiya san'ati vositasida, ya'ni kiyimni tashkil etuvchi xajmlar, ranglar, chiziqlar, detallar va bezak elementlarini yagona uzviy bir butun qilib birlashtirish vositasida erishiladi. Biroq- modelerning kiyim va butun kostyum obrazi ustidagi ishi eng muxim jixatga, ya'ni vazifa nuqtai nazaridan qulay, xayotda o'rinli kostyum yaratishga boysundirilgan bo'libgina qolmay, balki ifodali bo'lishi xam kerak.

Kompozitsiya san'ati san'atkorning qiziq va muxim jixatlarni ko'ra bilish va aloxida tarqoq komponentlarni bir butunlikka uyushtira bilish maxoratidan iborat. Rassom Kramskoy shu fikrni mana bunday ifoda etgan: «Toki rassom kuzatishni, qiziq va muxim narsalarni o'zi sezadigan bo'lishni o'rganib olmaguncha kompozitsiyani o'rganib ololmaydi. Faqat o'zi sezadigan bo'lgan paytdan boshlabgina unda ilg'ab olganining moxiyatini ifoda etish imkoniyati boshlanadi; qachonki u g'oyaning jumbog'i qaerdaligini tushunsa, o'shanda uning ta'riflashigina qoladi-da, kompozitsiya o'z-o'zidan kelib chiqadi ».

Modeler-rassom o'z ishida uning tasavvuri va fangaziyasini ozuqa berib boyitadigan turli ijodiy manbalarga murojaat etadi. Xalqning tarixiy o'tmishi va xozirgi jamiyat xayoti, atrof-tabiatchning xilma-xilligi, tarixiy kostyumlar va xalq kostyumlarining boyligi, badiiy adabiyot, muzika, kino, teatr va xokazolar xozirgi zamon rassomi ijodining manbalari bo'lib xizmat qiladi. Rassom uylarini yetishtirishga va konkretlashtirishga yordam beradigan ayrim motivlardan foydalanib, ana shu manbalardan o'z g'oyalari va obrazlarini to'plab boradi.

### Kompozitsiya kategoriyalari

Kompozitsiya nazariyasi kuzatilayotgan xodisalar orasidagi eng umumiy va eng muxim aloqalar va munosabatlarni aks ettiruvchi kategoriyalarga asoslangan bo'ladi. Kostyum kompozitsiyasida tektonika bilan xajmiy-fazoviy struktura ana shunday kategoriyalar xisoblanadi.

**Tektoniklik** – Tektonika shakldagi konstruktsiya va material bajarayotgan ishining ko'zga ko'rinib turadigan aksidir.

**Tektonik shakl** — bu sanoat buyumi shakli konstruktsiyasining va tayyorlanish usulining material xususiyatlarini badiiy tushunib etish, ularni ko'rsatib berish nuqtai nazaridan ifoda topgan ishi. Material yoki tayyorlanish usuli tektonik shaklni topish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Rassom material xususiyatlarini, uning konstruktsiyadagi ishini va buyumning tayyorlanish texnologiyasi xususiyatlarini-bularning xammasini umumiy g'oyaga, ya'ni badiiy va kompozitsion mo'ljalga boysundirib ongli ravishda tanlaydi, topadi, bo'rttirib ko'rsatadi. Xar bir materialning o'ziga xos xususiyatlari bo'lib, ana shu xususiyatlar muayyan shaklga asos

qilib olinadi. Masalan, shifondan bo'laklar minimal miqdorda. bo'lgan mayin, plastik, yengal shakl yasalsa, parchadan qattiq, «quruq», geometrik shakl yasaladi.

Materialdan buyumning qanday ishlash nuqtaiy nazaridan foydalanish xar qanday buyumning chinakam tiktonikligiga erishishning muxim shartadir. Agar muayyan materialning potentsial-konstruktiv imkoniyatlaridan foydalanilmasa yoki, bundan xam yomoni, uni g'ayritabiyy tarzda ishlashga majbur etilsa (masalan, zich to'qilgan, dag'al gazlamadan drapirovka qilinsa yoki yumshoq, plastik gazlamadan aniq geometrik siluet loyixalashtirilsa), unda tektonika buzilishidan qutilib bo'lmaydi. Odamning xarakatlari natijasida chinakam zo'r kelishlar xisobga olinmasa, shakl konstruksiyasini ishlayotganda notektoniklik yuzaga keladi (masalan, siyrak strukturali mayin gazlamalardan gavdaga yopishib turadigan siluetli koylakda xar xil burtmalar va mayda bo'laklar ko'p bo'lganda).

Kachonki tektonika muayyan badiiy yaxlitlikning uzviy qismi bo'lsa, shundagina u aniq-ravshan va ifodali bo'lib chiqadi. Fan- texnika revolyutsiyasining yutuqlari - yangi materiallarning paydo bo'lishi tektonikaga katta ta'sir ko'rsatadi.

Nima uchun tektonika kompozitsiyaning asosiy kategoriyalaridan biri xisoblanadi. Gap shundaki, konstruksiya va shaklning konkret materialda ifoda topgan o'zaro bog'liqligi—bu eng muxim jixat bo'lib, u butun buyumning kompozitsiyasini va shu kompozitsiya ustida olib borilgan ishni, ya'ni kompozitsion priyomdan boshlab va shakl xarakterini xamda uning nyuanlarini topishga qadar kompozitsiya vositalaridan foydalanishgacha bo'lgan ishni belgilab beradi.


Kostyum x a j m i y - f a z o v i y shaklining xususiyatlari. Xar bir buyum shakliga uning xamma elementlarining bir-biri bilan va fazo bilan o'zaro muayyan ta'sir etishi nuqtai nazaridan qarash, ya'ni uni xajmiy-fazoviy struktura, deb xisoblash mumkin. Bu struktura ba'zan oddiy va ixcham, ba'zan esa juda murakkab bo'ladi. Xajmiy-fazoviy strukturaning murakkablik darajasi qandayligidan qat'i nazar undagi barcha elementlarning o'zaro aloqadorlik sistemasini tektonika bilan bir qatorda chinakam uyg'unlikka erishishda xal qiluvchi axamiyatga ega bo'ladi.

Kompozitsiyaning ikkita asosiy kategoriyasi o'zaro mustaxkam bog'liqdir. Tektonikaning buzilishi (konstruktiv asos ishining soxta aks etishi) sanoat buyum xajmiy-fazoviy strukturasi elementlarining uzviy aloqadorligiga albatta ta'sir etadi, shuningdek xajmiy-fazoviy yechimning printsip jixatidan noto'g'ri xal etilishi tektonik xarakterdagi xatoliklarga olib keladi.

Kostyum yaratayotganda uning nimaga mo'ljallanganligini va qanday sharoitda ishlatilishini bilish kerak. Kostyum qulay, ishbop va chiroyli bo'lishi kerak. Shuning uchun kastyumning shakli konstruktiv xal etilishi, materiallarning tanlanishi, bezaklari va rangi uning asosiy vazifalariga, ya'ni estetik va amaliy vazifalariga itoat etgan bo'ladi.

Qismlarning muayyan tartibda tashkil topganligi, ya'ni strukturasi kostyumni xarakterlab beradi. Struktura deganda obrazli, funktsional va texnik yechimga bog'liq bo'lgan geometrik shakl elementlarining muayyan fazoviy sistemasini tushunish kerak. Geometrik shakl (to'g'ri: to'rtburchak, trapetsiya, oval, uch-burchak va xokazo) kostyum shakli strukturasi elementlari xisoblanadi.

Umuman- shakl va uning qismlarining geometrik ko'rinishi, shaklning katta-kichikligi va uning-massasi kostyum shaklini xarakterlaydi.



5-rasm Kiyimdagi geometrik shakl turlari:

- a) chiziq xarakteridagi; b) tekislik xarakteridagi;  
v) hajm xarakteridagi

## Shaklning geometrik

ko'rinishi shaklnang uchta fazoviy koordinatalaridagn o'lcham: mikdorlarining nisbati bilan, umuman shakl yuzasi va detallari yuzasining xakteri bilan belgilanadi.

Kiyim shaklini ko'rib chiqayotganimizdagi dastlabki taassurot shaklning xajmdorlik darajasidan siluet va chiziqlardan kelib chiqadi.

**Xajmdorlik darajasi** — bu uchta fazoviy koordinata boylab shakl o'lchamlarining nisbatidir.

Shaklning xajmdorlik darajasi bitta (vertikal boylab) o'lchamli bo'lsa, chiziqli xarakterda (5-rasm a); (ikki boy va yon) o'lchamli bo'lsa, tekislik xarakterida (5-rasm, b); kiyim shakli uch o'lchamli bo'lsa, xajmi xarakterida (5-rasm, v) bo'ladi. Buyumning xajmdorlik darajasini tanlash kostyumning ko'rinishi va nimaga mo'ljallanganligi bilan belgilanadi. Chiziqli xarakterdagi shakl bashang kiyimlar uchun tavsiya etilsa, tekislik xarakteridagisi xar qanday ishga mo'ljallangan kostyum uchun va xamma turdagi gavdalar uchun, xajm xarakteridagi shakl esa asosan boychan, ozg'in gavdalarga mo'ljallangan bashang kiyim uchun tavsiya etiladi.


Kiyim shaklining tekislikka tushirilgan eng ifodali proektsiyasini kostyumning **s i l u e t i** deb ataladigan bo'lgan. Odatda kostyum shaklini asosan frontal siluetlar va kamroq payitlarda profil siluetlar xarakterlaydi. Siluet ma'lum davir moboynda modada yuz bergan xarakterli o'zgarishlarini umumiy tarzda aniqlash imkonini beradi. Siluetlarni quyidagicha sinflash mumkin: gavdaga yopishib turish darajasiga binoan - yopishib turadigan (7-rasm, a), sal yopishib turadigan (7-rasm, b), bemalol turadigan (7-rasm, v); bel chizigining xolatiga binoan - bel chizigi tabiiy joyda (8-rasm, a), bel chizigi yuqoriroqda ko'tarilgan (8-rasm, b) yoki pastroq tushgan, bel chizigi sezilmaydigan (8-rasm, v); etak chizigining tizzaga nisbatan xolatiga binoan-kiym uzunligi tizzagacha, «mini» - tizzadan yuqori turadigan kalta, «midi» boldirlar yarmigacha tushadigan o'rtacha va «maks»- tupiqqacha tushadigan uzun; bo'ksa, ko'krak chiziqlarini sezilish darajasiga binoan (yelkalari ko'tarilgan, yelkalari kengaytirilgan).

Aniqroq tasavvur etish uchun siluetni geometrik shakillarga (to'g'ri to'rtburchak, tropetsiya, ovalga) nisbatan berib qaraladi, uni aloxida predmetlarga: bo'chkachaga, urchuqqa va xokazo; o'simliklarga: X - simon, A, D, T va xokazolarga taqqoslanadi. (6-rasm)


Shaklning tabiiy chegaralarini tashkil etuvchi siluet ramkadan iborat bo'lib, kostyumning yechimlari shu ramka doirasida xal qilinadi. Kiyimning konturlarini, kiyim aloxida qismlarining va detallarining konturlarini **c h i z i q l a r** deb olsa bo'ladi.

Kiyim kompozitsiyasi to'g'ri, egri va siniq chiziqlardan tuziladi. Kiyimda quyidagi asosiy chiziq guruxlari bo'ladi:


- siluet chiziqlari - shaklning tashqi konturlarini chegaralovchi chiziqlar;
- konstruktiv chiziqlar — kiyim shaklini xosil qilishdagina qatnashadigan chiziqlar: yelka choklari, yon choklar, vitochkalar, yeng o'tkazish choklari va xokazo;
- konstruktiv-dekorativ chiziqlar - xam shakl xosil qiluvchi, xam dekorativ vazifalarni bajaruvchi chiziqlar: burtmalar, koketkalarini ulash choklari, qirqmlar, mayda taxlamalar, taxlamalar, bo'rtma burmalar, drapirovkalar, burmalar va xokazo.
- dekorativ chiziqlar - dekorativ vazifalarnigina bajaruvchi chiziqlar: qoyma burmalar, ikki tomonlama qoyma burmalar, tasmalar, to'rlar, bezak detallar, furnitura, kashtalar, bantlar va xokazo.




7-rasm Ayollar ko'ylagi siluetlari



6-rasm Shaklning geometrik ko'rinishi  
a-to'g'rito'rtburchak; b-ovalsimon; v-trapetsiyasimon.



8-rasm Bel chizig'i xolatiga binoan siluetlarni  
ajratish




9-rasm Shaklning katta-kichikligi

Chiziqlar kiyimda katta ro'l o'ynaydi, chunki nazarimizni shaklning konstruktiv yuzasi boylab yetaklab, xarakat (dinamika) xosil qiladi va bu kishi gavdasini ma'lum bir ko'rinishida idrok etilishiga ta'sir qiladi (gavdani uzaytirib yoki pasaytirib, gavda xajmini kengaytirib yoki kichraytirib ko'rsatadi). Bundan tashqari nazarimiz (qarashimiz) xarakatini chiziqlar yordamida gavdaning ma'lum bir qismida (belda, bo'ksada yoki ko'krakda) to'xtatib turish imkoniyatiga ega bo'lamiz.

**S h a k l n i n g k a t t a - k i c h i k l i g i .** Shaklning bu xususiyatiga kiyim shakli katta-kichikligi bilan odam gavdasining nisbati tariqasida, shuningdek ikki yoki uch shaklning ularni bir-biriga taqqoslayotgandagi nisbati tariqasida qaraladi. Faqat ko'rinishi o'xshash kiyimlanigina va ularning tarkibiy qismlarinigina katta-kichiklik jixatidan taqqoslash mumkin.

Katta bilan kichikni taqqoslayotganda shaklning katta- kichikligi umuman xayoldagina kattalashib yoki kichiklashib ko'rinadi. (9-rasm)



10-rasm Kiyimdagi chiziq turlari (a-konstruktiv chiziqlar; b-konstruktiv-dekirativ chiziqlar; v-g-dekorativ chiziqlar).

Massa (vazn) - bu umuman kiyim shaklini yoki undagi aloxida qismlarning ko'rinishidagi og'irlik miqdori. Shakl massasining ko'rib idrok etilishiga quyidagilar ta'sir etadi:

- shaklning katta-kichikligi - kattaroq shaklning massasi kattaroq tuyuladi;
- xajmdorlik darajasi - xajm xarakteridagi shaklning massasi maksimal, chizikli shaklning massasi esa

minimal bo'lib ko'rinadi; shaklning o'z chegarasi doirasida konstruktiv, konstruktiv-dekorativ va dekorativchiziq'larga qanchalik to'lganlik darajasi - kiyim shakli chiziq'larga siyrak to'lgan bo'lsa, massasi minimal, eng ko'p to'lgan bo'lsa, maksimal bo'lib ko'rinadi;

– materialning rangi, rasmi va fakturasi - fonini zich to'ldirib turgan yirik rasimli, odmi yoki to'q rangli materiallar va fakturasi yaltiroq materiallar massasi maksimal, fonini siyrak to'ldirib turgan mayda rasimli, ochiq rangli, oqish materiallar va fakturasi siyrak materiallar massasi minimal bo'lib ko'rinadi. (11-rasm)

Kiyimlarni loyixalayotganda uning massasini yoshga, mavsumga va nimaga mo'ljallanganiga bog'lab xisobga olish kerak.

Masalan, yasli yoshidagi va maktabgacha bolalar kiyimining massasi yengil bo'lishi kerak, shuning uchun ularni xamma vaqt ochiq, mayin rangli, mayda siyrak rasimli materiallardan tikiladi; qishki kiyim ko'rinishidan yengil bo'lishi kerak; chunki uning tabiiy vazni og'ir bo'ladi, shuning uchun ular xurpaygan fakturali materiallardan tikiladi; maktab bitiruvchilarining tantana marosimidagi koylaklarini oq, pushti, xavorang va boshqa rangdor gulli materiallardan tikiladi, chunki bunda yoshlikka xayolchanlik xos bo'lgani uchun sho'xchanlik, qushdek yengillik parvoz xissi sezilib turishi kerak. (12-rasm)

Kompozitsiyaning xususiyatlari

Kostyum kompozitsiyasining uyg'un bir butunlik sifatida shaklning yaxlitligi, simmetrik va assimetrik, statiklik va dinamiklik kabi bir qator xususiyatlari bor.

**S h a k l n i n g y a x l i t l i g i .** Shaklning yaxlitligi konstruktiv yechimi bilan uning kompozitsion mujassamligi o'rtasidagi aloqa mantiqini va uyg'unligini aks ettirgan bo'ladi.

Xar qanday kompozitsiyani asosiy elementlar bilan axamiyati kamroq va ikkinchi darajaliroq elementlarining bir-biriga boysunganligiga asoslangan muayyan sistema deb qaralsa bo'ladi. Bunda asosiy va boysungan qismlar bir butunlikni tashkil etib, o'zaro bir-birini kuchaytiradi.

Kompozitsion tuzilgan shaklda, shu jumladan kostyumda xam albatta asosiy qism yoki **k o m p o z i t s i o n m a r k a z** mavjud bo'lib, boshqa qismlar unga bo'sundirilishi kerak. Asosiy qismi yaxlit kompozitsiyada xukmron bo'lib turadi.

Kompozitsion markaz gavdaning istalgan qismida bo'lishi mumkin. Masalan, u yuzga yaqin joyda, belda, ko'krakda, bo'ksada, oyoq yaqinida, oldinda yoki orqada va xakazo yerda bo'ladi. Kostyumning istalgan qismi - masalan, bosh kiyim, ust kiyim, oyoq kiyim, sumka, biron bezak va xakazo kompozitsion markaz bo'lishi mumkin. Ust kiyimning istalgan qismi xam – ko'krak qismi, yubka, yenglar, yoqa va boshqalar - kompozitsion markaz bo'lishi mumkin.

Asosiy qismining kostyumda qanday joylashtirish jins-yosh alomatlariga (katta yoshlilar uni yuz yaqinida joylashtirishadi, yasli yoshidagi bolalar uchun esa yuz atrofida yoki oyoq yaqinida bo'ladi), gavda tuzilishi turiga



11-rasm Shaklning chiziq'larga to'ldirganlik darajasiga qarab massaning o'zgarish.



12-rasm Massaning material rasmi xisobiga o'zgarishi.



(to'la kishilar uchun asosiy qismni belda, bo'ksada bo'lishi tavsiya etiladi) va kiyimning nimaga mo'ljallanganiga bog'li.


Shakl elementlarining o'zaro tengsizlikni belgilaydigan kompozitsion markazning boshqa qismlardan ustunligini ta'kidlab beradigan xususiyatlarning qonuniyatlari asosida pozitsion markazni bo'rttirib ko'rsatishga erishiladi. Quyida shu qonuniyatlarni ko'rib chiqamiz.

**Miqdor qonuni.** Bir turli bezakning katta-kichikligi, xajmi massasi yoki miqdori kattaroq bo'lgan boshqa qismlaridan ustunroq kelib turadi. (13-rasm)

**Markazda bo'lish qonuni.** Bo'rttirib ko'rsatiladigan qismning nisbati markaziy joyda bo'lishi boshqa xamma jixatlari teng bo'lgan xolda shu qismni asosiy kompozitsion markaz qilib ko'rsatadi. (14-rasm)


**Sifat qonuni.** Xususiyati yoki bir gurux xususiyatlari jixatidan ko'proq bo'lgan qism ustun bo'lib turadi. Rasmiy xarakterda bo'lgan xar qanday turli bezaklarning xar xil aktivligidan va sifatidan foydalanish asosiy qismni bir butundan ajratib ko'rsatish priyomlaridan biri bo'ladi. (15-rasm)

**Ma'no omili qonuni.** Bir butunning ma'nosi bor bezakli qismi (emblema, gullar va boshqalar) rasmiy xarakterdagi bezakli qismlardan ustun turadi. (16-rasm)



14-rasm Kompozitsion markazni markazda joylashganlik qonuniga binoan bo'rttirib ko'rsatish.

13-rasm Kompozitsion markazni miqdor qonuniga binoan bo'rttirib ko'rsatish.



15-rasm. Kompozitsion markazni sifat qonuniga binoan bo'rttirib ko'rsatish



16-rasm Kompozitsion markazni ma'no omili qonuniga binoan bo'rttirib ko'rsatish.

### ***Nazorat savollari:***

1. Kiyimning obrazli ifodaviyligi nima?
2. Kompozitsiya kategoriyalari qaysilar?
3. Kompozitsiyada siluet tushunchasi?
4. Kompozitsiyaning xususiyatlari deganda nimani tushunasiz?
5. Kostyum kompozitsiyasida qanday asosiy chiziqlar mavjud?
6. Kastyum kompozitsiyasidagi massa nima?
7. Kompozitsiya nima?
8. Tektoniklik nima?
9. Kostyum xajmiy-fazoviy shakli deganda nimani tushunasiz?
10. Shaklning geometrik ko'rinishi deb nimaga aytiladi?
11. Xajmdorlik darajasi nima?
12. Shaklning katta-kichikligi deganda nimani tushunasiz?
13. Shaklning yaxlitligi nima?
14. Kompozitsion markaz nima?
15. Markazni bo'rttirib ko'rsatish qonuniyatlarini sanab o'ting.

### **Uyga vazifa.**

1. Kostyum siluetiga 2 ta model.
2. Kiyimdagi chiziq'larga 2 ta model.
3. Kiyimning massasiga 2 ta model.

### **Adabiyotlar.**

1. Parmon F.M. Kompozitsiya kostyumam M: 1997 16-18 s
2. Stamerov K.K. Istoriya kostyuma Iast 1 Kiev-Nauka, 1978
3. Hasanboeva G.K. V.A. Chursina «Kostyum tarihi» Toshkent «Uzbekiston»
4. Hasanboeva G.K. Kro`mova O.I. «Kiyim modelini ishlash va konsruksiyasini tayyorlash» Toshkent – ukituvchi 1990.

## **2— Labaratoriya**

### **Kompozitsiya xususiyatlari**

(Kompozitsiyon markaz, muvozanat, statiklik va dinamiklik)

### **Reja**

7. Kompozitsiyon markazni bo'rttirib ko'rsatish qonuniyatlari
8. Kompozitsion muvozanat
9. Statiklik va dinamiklik xususiyatlari

Kompozitsion tashkil etilgan shakl (libosning, poyabzalning, sumkaning yoki umuman libosning) o'z asosiy qismiga yoki kompozitsion markazga ega bo'lib, boshqa tobe qismlar unga bo'ysunadi. Asosiy qism — hamma elementlar o'rtasidagi asosiy, muhim bog'lanishlar to'planish joyi. Shaklning istalgan elementi, uchastkasi kompozitsion markaz bo'la oladi.

Kompozitsion markazni turlicha ajratish mumkin: miqdoriy, markaziy joylashuv bilan, sifatli, mazmuniy omil sifatida (masalan, pardozlash). Kompozitsiyaning murakkab ko'rinishlarida o'zaro bog'langan bir necha kompozitsion markazlar bo'lishi mumkin. Libosda kompozitsion markaz poyabzal, sumka bo'la oladi. Bunda erkaklar libosida shim pasti va tuflilar, ayollar libosida bel yoki yelka libosi va etiklar usti o'rtasidagi nisbatlar kabi kompozitsiya uchastkalarining yaxlit yechimi muhimligini qayd etish lozim. Erkaklar modasiga shimlar osilib turishining kirishi bilan uning poyabzal bilan aniq kompozitsion aloqadorligi o'rinishadi.

Ko'p holatlarda uzaytirilgan shimlar pasti poyabzal ustiga tushib, qisman uning ustini qoplab turadi, kengaytirilgan shim pasti poyabzal ustini to'liq qoplab turadi. Biroq bunda sof utilitar talablarga ko'ra tagcharm va poshna ochiq qoladi. Bu borada shim pasti va poyabzal bo'ylama izi yechimining ifodaliligi, bu chiziqlarning plastikligi alohida ahamiyat kasb etadi. Bunday o'zaro aloqadorlik — erkak libosining yaxlitligi qomatning kelishganligini ajratib turadi. Modaga kirgan ayollar shim komplektlari jaket va shim, sviter va shim, bluzka va shim va hokazo, shuningdek, libos kompozitsiyasi bu qismining yechimi muhimligini aniqlaydi.

Kompozitsion markaz va kompozitsiya boshqa qismlarining muvofiqligiga qator shartlarni bajarish asosida, libos hamma elementlari birligi va bog'lanish vositalari orqali erishiladi: qismlarning o'zaro o'lchamlari uyg'unligi, masshtablilik, plastiklik, ritmiy bog'lanishlar proporsiyalari, rang va faktura yechimlari, dekorning uyg'unlik bilan kiritilishi.

Kompozitsiyaning bu vositalari orqali mahsulot ifodaliligiga va uyg'unligiga erishiladi. Ularning qo'llanishi mahsulotga qo'yiluvchi funksional va konstruktiv talablarga, shuningdek, mahsulotning muhim va odam bilan optimal o'zaro bog'lanishi talabiga javob berishi lozim. Bunda har qanday kompozitsion usullar o'z oldiga qo'yilgan maqsadni emas, balki shaklda mahsulotning asosiy mazmuniy xususiyatlarini — uning vazifasi, tuzilishi, konstruksiya xususiyatlari va boshqalarni ifodalash vositasi ekanligini esda tutish kerak. Libos, poyabzal shakllari monolit (yaxlit) emas, odatda, qator tarkibiy qismlardan iborat. Ularning qismlardan iborat bo'lishi libos, poyabzal, aksessuarlar shaklining odam gavdasi, oyog'i, qo'llari tuzilishi, mahsulot tayyorlanish texnologiyasi, mato xususiyatlari, ularning vazifasi, va ayniqsa, badiiy ifodalilik masalalariga bog'liq. Libos u yoki bu darajada inson gavdasining murakkab konfiguratsiyasini aks ettiradi va to'g'ri geometrik shaklga ega emas.

#### **Nazorat savollari:**

16. Kompozitsiya nima?
17. Kompozitsiyon markaz deb nimaga aytiladi?
18. Kompozitsiyon markazni bo'rttirib ko'rsatish qonuniyatlari.
19. Kompozitsion muvozanat.
20. Kompozitsion muvozanat qonuniyatlari
21. Statiklik va dinamiklik xususiyatlari.

#### **Uyga vazifa.**

4. Kompozitsiyon markazga 2 ta model.
5. Statiklik xususiyatiga 2 ta model.
6. Dinamiklik xususiyatiga 2 ta model.

#### **Adabiyotlar.**

1. Parmon *F.M.* Kompozitsiya kostyumam M: 1997 16-18 s
2. Stamerov *K.K.* Istoriya kostyuma Iast 1 Kiev-Nauka, 1978
3. Hasanboeva *G.K. V.A.* Chursina «Kostyum tarihi» Toshkent «Uzbekiston»
4. Hasanboeva *G.K. Kro`mova O.I.* «Kiyim modelini ishlash va konsruktsiyasini tayyorlash» Toshkent – ukituvchi 1990.

### 3 — Labaratoriya ishi

#### Kompozitsiya xususiyatlari (Simmetriya va assimetriya)

##### Reja:

1. Kostyumdagi simmetriya va simmetriyani yaratish sabablari va turlari.
2. Kiyim simmetriyasi va va assimetriyasi.
3. Simmetrik ichidagi assimetrik echish.

##### Tayanch iboralari: Simmetriya va assimetriya.

**Simmetriya** - kompozitsiyaning yeng yorqin va ko`zga tashlanib turadigan xususiyatlaridan biri. «Simmetriya... uning yordamida inson bir necha asrlardan beri tartibga, go`zallikka va kamolatga erishmoqchi va buni yaratmoqchi bo`lgan o`sha g`oyadir» (G. Veyl. Simmetriya. M., nauka, 1968, 37 bet.). Demak simmetriya o`ziga xos go`zallik normasi ekan. (1-rasm)

Kiyim kompozitsiyasida simmetriya masalalari muhim rol o`ynaydi. Bu ikki jihatda: materialdagi rasm kompozitsiyasida va kostyumni o`zini shakllantirishda o`z aksini topadi. Kostyumlarda kiyimning alohida qismlari, uning detallari, rangi, bezagi, furniturasini va shu kabilarni simmetrik joylashtirilishi mumkin.

Tabiatda mutlaq simmetriya bo`lmaydi. Kostyumda ham ko`pincha simmetriyadan chetga chiqishlar bo`lib, bu uning nimaga mo`ljallanganligiga, ishlatilish sharoitining xarakteriga, ishlab chiqarishdagi texnologik sharoitga, badiiy obrazlilik vazifalariga bog`liq bo`ladi.

**Assimetrik** kompozitsiya ham simmetrik kompozitsiya singari funktsional vazifani xal etishning ob`ektiv natijasi bo`ladi. Lekin assimetrik shakl ustida ishlash murakkabrog`u kompozitsion muvozanatni nozik his etishni, badiiy butunlikni ta`minlash darajasida taraqqiy topgan intuitsiyani talab qiladi. (2-rasm)

Assimetriyani kundalik kostyum kompozitsiyasida yorqin ko`zga tashlanadigan emasligi undan shakl xususiyatlarining ozg`ina qismida foydalanishni bildiradi. Amalda bunday kompozitsiyalar **simmetriya ichida assimetriyani** ko`rsatish maqsadida xal etiladi. Bashang kiyimdagi yorqin ifoda etilgan assimetriya kiyimni odatdagidan boshqacha, yorqin ko`rinishli, dinamik qilib turadi. (3-rasm)

**Simmetriya** – bu turg`un, o`zgarmas, sokinlik va maqsadga muvofiqlikdir. **Assimetriya** - bu harakat, izlanish. Bitta kastyumda simmetriya va assimetriyaning elementlarining mavjudligi assimetriyaning dinamikasini (o`zgarish) oshiradi (bo`rttirib ko`rsatadi).

Statiklik va dinamiklik. Kompozitsiyaning ifodaliligi uning tushunishga qulayligi shaklning boysungan qismlaridan bosh kompozitsion markaz tomon harakatda bo`lib ko`rinishi (dinamikasi) qay darajada hosil qilinganligiga bog`liq. Nimaiki bo`rtirilayotganligi aniq bo`lishi uchun, harakatni kostyumning qaysi qismiga qaralsa ham, dinamika rassomning bo`rttirib qoygan qismini ko`rsatadigan bo`lishi kerak.

Statiklik - shakl turg`unligining tinchlik holatining bo`rttirib ifoda ettirilganidir. Shaklning statikligi o`lchamlar tengligini yoki o`lchamlar nyuansini xarakterlaydi.

O`lchamlardagi kontrastlik qaysi miqdor ko`proq bo`lsa, o`sha tomonga yo`nalgan dinamika hosil qiladi.

Shaklning dinamikasi ham shaklni qismlarga kontrast bo`laklashda paydo bo`ladi. Bunday xolda kattaroq qismdan kichikroq qism tomon harakat paydo bo`ladi.

Shakl ichidagi chiziqlar yunalishini xakteri qandayligiga qarab shaklning turlicha yunalganligi hosil bo`ladi, uning dinamikligi kuchayadi.

Bir tusli, lekin tukligi har xil bo`lgan 2ta xromatik ranglar yoqi och tukligi har xil 2ta axromatik ranglar birga kushilgandi harakatda bo`lib ko`rinish yo`zaga keladi. Aktiv ranglar o`zi tomon harakat hosil qiladi.

Keyingi modellashirishda to`zilmalar dinamikasi keng ishlatiladi.

Gavdani ko`rib idrok etish kostyumdagi dinamikaga qanday ta`sir etganligiga bog`liq: agar harakat yuqoriga tomon yunalgan bo`lsa, gavda darrozroqday, pastga yunalgan bo`lsa, kaltaroqday ko`rinadi.

##### Nazorat savollari:

1. Kostyumdagi simmetriya nima ?
2. Simmetriyani yaratish sabablari qanday?
3. Simmetriyan turlari.
4. Kiyim si.
5. Simmetrik ichidagi assimetrik yechim.

### Uyga vazifa.

7. Kostyumdagi simmetriyaga 2 ta model.
8. Kostyumdagi assimetriyaga 2 ta model.
9. Simmetrik ichidagi assimetriyaga 2 ta model.

### Адабиётлар.

1. Parmon F.M. Kompozitsiya kostyumam M: 1997 16-18 s
2. Stamerov K.K. Istoriya kostyuma Iast 1 Kiev-Nauka, 1978
3. Hasanboeva G.K. V.A. Chursina «Kostyum tarihi» Toshkent «Uzbekiston»
4. Hasanboeva G.K. Kro`mova O.I. «Kiyim modelini ishlash va konsruktsiyasini tayyorlash» Toshkent – ukituvchi 1990.





#### 5 –Laboratoriya ishi

Reja:

# Kompozitsiya vositalari (kontrast, nyuans, o'xshashlik)

1. Kontrast, nyuans, o'xshashlik va ular asosida figurani tashqi ko'rinishini yaratish.
2. Kiyimda shakllar va chiziqlar kontrasti
3. Kiyimda shakllar va o'xshashligi
4. Kiyimda shakl va chiziqlar nyuansi.

#### Tayanch iboralar:

Kontrast, nyuans, o'xshashlik.

Shakl elementlari o'xshashlik prinsipiga kontrastlik prinsipiga binoan birlashgan bo'lishi, ya'ni hamma qismlar takrorlanishga asoslangan yoki shakl rang, xajmlilik darajasi, fakturadagi chiziqlar jihatidan bir-biriga qarama-qarshi qoyilgan bo'lishi mumkin.

Kontrast kompozitsiyadagi turli yo'nalishlarning kurashi, bir-biriga qarama-qarshiligi bo'lib, bu rassomlarning hamma vaqt eng keng foydalanib kelgan vositalaridan biri bo'lib kelgan. Kostyum tarixida kontrastlik temasi asar xarakteri, davr uslubi, avtor individualligi qandayligiga qarab keng xilma-xil ifoda topib asrlar davomida o'zgarib kelgan (1.23-rasm,a).



Kontrastga asoslanib tuzilgan kompozitsiyaning mohiyati uning ko`rinish ta`siri aktivligida. Nyuans nisbatlaridan kontrast nisbatlarining farqi shundaki, bular darhol ko`zga tashlana qoladi. Zerikarli geometrik shaklning ifodaliligini undagi ichki chiziqning, rangning, fakturaning bir biriga ta`siri kontrastligidan foydalanib oshirsa bo`ladi. Lekin kontrastning shakldagi roli xilma-xil: ba`zi xollarda u shaklning konstruktiv asosiga bog`liq bo`lsa, boshqa bir xollarda shakl strukturasi tuzish vositalariga bog`liq bo`ladi.



Shunisi g`alati, kontrastning kuchliligi uning zaif tomoni bo`lib chiqadi. Idrok etishga aktiv ta`sir o`tkazuvchi vosita bo`laturib, unda salbiy tomonlar ham bor: u kishini tez charchatadi, tez-tez ishlatilavergan narsa tez jonga tegadi. Har qanday kuchli ta`sir etuvchi vosita extiyot bo`lishni talab etadi - bunday vositaning xaddan ortiqchiligi har qanday taassurotni buzib yuboradi. Kontrast mana shunday.

Kompozitsiyada undan foydalanganda muayyan darajadan oshmaslik, kontrast meyorini saqlash kerak. Kontrast sport kiyimda (ranglar kontrasti), bashang kiyim bilan tomosha kiyimda ishlatilgani ma`qul.

O`xshashlik printsiipi – bu asos qilib olingan elementning kostyum kompozitsiyasida taraqqiy topib, turli variantlarda rivojlana borishi. Ko`p xollarda kostyumda bitta shakl xukmronlik qilib, boshqa asosiy qismlarning hammasi unga boysungan bo`ladi-yu, lekin kostyum ko`pqavatli, murakkablashgan strukturadek taassurot qoldiradi (1.23-rasm, b).



Kontrast bilan o`xshashlik kiyimning asosiy strukturasi belgilab beradi, lekin ayni vaqtda mayinroq «ko`rkamlik samarasi» beradigan qo`shimcha bo`lishi zaruriyatini tug`diradi; kompozitsiyadagi kontrast nozik akkompanement, jurlik qiladigan nyuanslar bo`lishi zaruratini kelitirib chiqaradi – busiz kompozitsiya odatda dagal, primitiv bo`lib koladi. Shakl elementlarini nyuansli ishlash, aniq ravshan xal etilgan shaklda ozroqgina dekor (bezak) bo`lishi kompozitsiya g`oyasini faqat ta`kidlab beradi, uni ifodalibroq va obrazliroq darajaga ko`taradi.

Nyuanslar kompozitsiya vositasi tariqasida proportsiyalarda, maromda, gul va tus nisbatlarida, dekorda, plastikada, dekal qoyib chiziladigan murakkab egri chiziqlar yordamida shakllar tuzishda va hokazolarda ko`rinadi (1.23-rasm,v).

Proportsiya nyuanslari , kontrastdagining aksincha, darxol tushunib yetilmaydigan, osoyishta, o`ziga xos shakl asosini hosil qiladi.

Plastik nyuanslar avvalo shakl xarakterida ko`zga ko`rinib, unga san`atga xos, alohida iliqlik beradi.

Nyuans – eng nozik vosita. «Sal – pal degani qayerda boshlansa, san`at o`sha yerda boshlanadi», -deb aytganida buyuk K. Bryulov san`atning eng xarakterli xususiyatini aytgan bo`lsa ajab emas.

Kostyum kompozitsiyasini nyuansli xal etilishi hamma yoshdagilarga, hamma tur qomatlilarga va har qanday ishga mo`ljallanganda ham to`g`ri kelaveradi



16-18 s

Kostyum kompozitsiyasini loyihalashda kontrast, nyuans va o`xshashliklarni qo`llamaslikning xech iloji yo`q.

#### Nazorat savollari

1. Kompozitsiyada kontrast nima?
2. Kontrast nisbatlardan nyuans nisbatlarini farqi nimada?
3. O`xshashlik prinsipi modelda qanday ifodalanadi?

#### Uyga vazifa.

10. Kostyum kompozitsiyasidagi kontrastlikka 2 ta model.
11. Kostyum kompozitsiyasidagi nyuansga 2 ta model.
12. Kostyum kompozitsiyasidagi o`xshashlikka 2 ta model.

#### Adabiyotlar.

1. Parmon F.M. Kompozitsiya kostyumam M: 1997
2. Stamerov K.K. Istoriya kostyuma Iast 1 Kiev-Nauka, 1978
3. Hasanboeva G.K. V.A. Chursina «Kostyum tarihi» Toshkent «Uzbekiston»
4. Hasanboeva G.K. Kro`mova O.I. «Kiyim modelini ishlash va konsruktsiyasini tayyorlash» Toshkent – ukituvchi 1990.





PEN.AZ







BM1409



Oksana Mukha  
Arlet

*ELZA*  
ELZA.RU





## 6-Labaratoriya Kompozitsiya vositalari (Kostyum tuzilishida ritmik va metrik qonuniyatlar)

### Reja

1. Kompozitsiya vositasida ritm.
2. Dinamik odim nima?
3. Oddiy metrik qator deb nimaga aytiladi?
4. Murakkab metrik qator deb nimaga aytiladi?
5. Ritmik tartibi nima?
6. Kostyum elementlarining ritmik yo'nalishlari qaysilar?
7. Ritmik tartiblarni sanab o'ting
8. Dinamik ritm nima?
9. Odatda kostyum elementlarida ritm qanday holatlarda uchraydi?

Ritm tushunchasi umumiy ko'rinishda bu shakl elementlarining navbatma-navbat qonuniy almashinib turishi.

Kostyum kompozitsiyasidagi ritm kostyumni tashkil etgan shaklning hamma qismlarini bir-biriga bog'lovchi vositalardan biri hisoblanadi. Ritm hosil qiladigan bog'lanish kuchi anchagina bo'lib, u kostyumning hamma qismlarida ta'sir etib turadi. Ritm xar qanqay asarga musiqiylik baxsh etadi, uni xarakatga soladi.

Ritm sababli bosh kompozitsion g'oyaning jarangdorligi ortadi, muayyan tartib va ravonlik kiritiladi.

Shakl elementlarining va ular o'rtasidagi intervalning takroriyliigi ritmning xarakterli alomati hisoblanadi. Aksentli (e'tibor tortadigan) elementlar aktiv elementlari deyiladi, aksentsizlari esa **passiv** elementlar deb yuritiladi. Aktiv elementlar o'rtasidagi oraliq (interval) **dinamik odim** deb ataladi. Elementlari xarakatining orta borish tezligi **sur'at** deyiladi.

**Oddiy metrik** qator, ya'ni bir xil shaklaning teng intervallarda takrorlanishi kompozitsiya tuzilishiga asos qilib olinadigan eng oddiy qonuniyat xisoblanadi.

Metrik takrorlanishlarga quyidagi singari, xar xil bulishi mumkin:

- teng shakllarning teng intervallarda takrorlanishi;
- teng shakllarining xar qaysi shakl tugagan joydan boshlab (intervalsiz) takrorlanishi;
- shakl elementlarini radial joylashtirilishi.
- Ikki yoki undan ortiq oddiy metrik qatorlarning birga qo'shilganidan iborat qator **murakkab metrik** qator deb ataladi.

Biroq metrik qatorni xaddan tashqari ko'p ishlatib bo'lmasligini yodda tutish kerak, chunki bir turli elementlarning tez-tez takrorlanishi zerikarli bir xillikka olib keladi.

Shakllar va ular o'rtasidagi intervallarning birin ketin qonuniy o'zgara borishi (kattalashishi yoki kichraya borishi) shakllar joylanishining **ritmik tartibi** deyiladi. Ritmik qator arifmetik progressiya yoki geometrik progressiya qonuniyatlariga asoslanib tuzilganda qatordagi qo'shni elementlar yoki intervallar miqdori o'rtasida o'zgarmas farq bo'lishiga, geometrik progressiyaga asoslanib tuzilganda esa **o'zgarmas nisbat** bo'lishiga rioya qilinadi.

Kostyum elementlarining ritmik yo'nalishlari:

- a) Spiralsimon; b) nursimon; v) radial; g) d) paralell; e) aralash

Kostyumda vertikal va gorizontaal ritmik tartiblar mavjud.

Ritmik tartiblar quyidagi sxemalarda bo'lishi mumkin:

- teng elementlar takrorlanib turadi-yu, ular urtasidagi intervallar o'zgara boradi;
- shakl elementlari kattalasha yoki kichraya boradi-yu, interval o'zgarmaydi;
- shakl elementlari xam, ular o'rtasidagi intervallar xam kattalasha yoki kichraya boradi;
- shakl elementlari radial yunalishda kattalasha yoki kichraya boradi.

Ritm kamaya boradigan yoki orta boradigan bo'ladi. Bunday sur'at sekin, o'rtacha, tez bo'lishi mumkin. Bu kostyumda **dinamikani** xosil qiladi.

Odam gavdasining simmetriya o'qiga nisbatan echimlarini turli xil qilishdan foydalanib, shakl elementlarining ritmik tuzilishiga erisha bo'ladi.

Kostyum kompozitsiyasida ritmik tuzilishning birgina turidan foydalanish kamdan-kam uchraydi. Shakl elementlarining **metroritmik** (murakkab ritm) bo'lib birga qo'shilganini ko'proq ko'rish mumkin.

Shaklning hamma elementlari - xajm, chiziqlar, faktura, detallar, bezak va xokazolar ritmik tuzilishi mumkin.

Kostyum elementlarining birlashish sxemasiga binoan ritmik tuzilish vertikal, gorizontaal, diogonal, spiralsimon, nursimon, radial, bir tomonli, qarama-qarshi va aralash yo'nalishli bo'ladi.

Elementlarning rivojlana borishida o'z qonuniyati borligi kompozitsiyani ritmik xal qilishning xarakterli xususiyatidir. Bu qonuniyatning buzilishi, ya'ni **aritmia** kompozitsiya yaxlit idrok etilishiga putur etkazadi.

### Nazorat savollari:

1. Ritm nima?
2. Oddiy metrik qator deb nimaga aytiladi?
3. Ritm qanday turlardan iborat?

### Uyga vazifa.


13. Oddiy metrik qatorga 1 ta model.
14. Teng elementlarni intervalsiz takrorlanishiga 1 ta model.
15. Har xil elementlarni teng intervalda takrorlanishiga 1 ta model.
16. Elementlarni intervalsiz takrorlanishiga 1 ta model.
17. Shakl elementlarining radial ravishda o'zgarib borishga 1 ta model.
18. Dinamik ritmga 1 ta model
19. Aritmiyaga 1 ta model


### Adabiyotlar.


1. Parmon F.M. Kompozitsiya kostyumam M: 1997 16-18 s
2. Stamerov K.K. Istoriya kostyuma Iast 1 Kiev-Nauka, 1978

3. Hasanboeva G.K. V.A. Chursina «Kostyum tarihi» Toshkent «Uzbekiston»

4. Hasanboeva G.K. Kro`mova O.I. «Kiyim modelini ishlash va konsruksiya-sini tayyorlash» Toshkent – ukituvchi 1990.









## 7-Labaratoriya

### Kastyum kompozitsiyasida ranglarning ro'li (Ranglar doirasi va ranglarning xususiyatlari)

#### Reja

10. Rang xususiyatlari va birikmalari.
11. Xromatik va oxromatik ranglar.
12. Issiq va sovuq ranglar.

**Rang xususiyatlari va birikmalari.** Predmetning eng muxim informatsion sifatlaridan biri rang hisoblanadi. Amaliy san'at predmetlarida rangning vazifasi turlicha. Bular:

- psixologik;
- jismoniy;
- estetik vazifalardir.

Rang xayot mamot simvoli quvonch va xafalik ifodasi bo'lib kelgan: u iliqlik va sovuqlik, quruqlik va namlik, yengillik va vazminlik, xissini berishi mumkin; bizning his tuyg'ularimizda ham rang ta'siri bor: "qora kun", "oq ko'ngil", "yorqin niyatlar", "qora niyat", "oq yo'l" - bularning hammasi rangning **psixologik vazifasini** bildiradi.

Turli tarixiy davirlarda rangga, rang simbolikasiga munosabat turlicha bo'lgan, masalan, ko'chmanchilar yorqin to'q ranglarni ma'qul ko'rgan bo'lsa, o'tiroq xalqlar ochroq murakkab ranglarni yoqtirgan. Rang ma'lum ijtimoiy tabaqalanishni ifoda etgan. Masalan qadimiy Rimda qirmizi toga plashch kiyishga imperatorgina xaqli edi. Diniy mansublik qaysi rangda kiyinishni belgilab berardi. Masalan ingliz puritanlari qora kiyinsalar, katoliklar aksincha olachipor kostyum kiyardilar.

Urushlar epidemiya, ocharchilik odmi kiyimlar tarqalishiga sabab bo'lsa, ulardan keyin yorqin rangli kiyinish an'ana tusiga kirar edi.

Rang hamma vaqtlarda jins-yosh farqini bildiradigan vosita bo'lgan. Bolalar kiyimi nozikroq tusli bo'ladi, o'smirlar kontrast ranglarni ma'qulroq; kuradi, katta yoshlilarga chuqurroq rang tuslari yoqadi. Ayollarning kiyimi erkaklar kiyimidan yorqinroq va ko'p rangliroq bo'ladi.





Tabiatdagi xamma ranglar xromatik (spektr ranglari bilan qirmizi) va axromatik (oq, qora, kulrang) ranglarga bo'linadi. Xromatik ranglarning xususiyatlari quyidagilardir:

- rang tusi -rangning shartli belgisi (qizil, ko'k, to'q sariq, xavo rang va hokazo) rangning nomi shartli yoki bironta predmet, o'simlik nomiga yaqinlashtirib aytiladi (limon rang, apelsin rang, o'rik rang va hokazo);
- rang to'qligi - rang kuchining va xromatik rangga axromatik rang aralashgan bilan xarakterlanadigan rang tusi qanchalik sofligini ko'rsatkichi;
- oqishlik-xromatik rangning ok rangga yaqinlik darajasi;


Axromatik ranglarda faqat oqishlik xususiyatigina bo'ladi. Spektrdagi ranglar eng sof, eng to'q ranglar bo'ladi. Oq aralash ranglarni (pushti, xavo rang, bargikaram) pastel (mayin) ranglar deyiladi. Kulrang qo'shilsa, to'qligi kam bo'lgan odmi ranglar chiqadi.

Agar spektr ranglariga qirmizi rang qo'shib, ularni doyra boylab joylashtirilsa, ranglar doirasi xosil bo'ladi. Sariq, ko'k, qizil va yashil ranglar shu doiradagi asosiy ranglar xisoblanadi, chunki ularda ranglar doirasidagi o'zlariga qo'shni ranglar tusi xam, aralashmasi xam bo'lmaydi. Doiradagi qolgan ranglar oraliq ranglar xisoblanib, ular bir-biriga qo'shni asosiy ranglarni aralashtirishdan kelib chiqadi.

Diametrlarning qarama-qarshi uchlaridagi ranglar qo'shimcha ranglar deyiladi. Optik aralashish natijasida ular oq rang xosil qiladi. Bu ranglarda bir-birini to'qroq va kuchaytirib ko'rsatish qobiliyati bor. Masalan, yashil rang qizil rang yonida yashilroq, qizil rang esa qizilroq ko'rinadi.



*Xromatik ranglarning monandlik sxemasi* (a - ranglarning o'xshash birga qo'shilishi, b - ranglarning kontrast birga qo'shilishi, v - ranglarning o'xshash-kontrast birga qo'shilishi, g - ranglarning uchrangligi birga qo'shilishi)



### Nazorat savollari:

4. Ritm nima?
5. Oddiy metrik qator deb nimaga aytiladi?
6. Ritm qanday turlardan iborat?

### Uyga vazifa.

20. Ranglar doirasiga 1 ta rasm.
21. Xromatik ranglarga 1 ta rasm.
22. Oxromatik ranglarga 1 ta rasm.
23. Issiq ranglarga 1 ta rasm.
24. Sovuq ranglarga 1 ta rasm.

### Adabiyotlar.

1. Parmon F.M. Kompozitsiya kostyumam M: 1997 16-18 s
2. Stamerov K.K. Istoriya kostyuma Iast 1 Kiev-Nauka, 1978
3. Hasanboeva G.K. V.A. Chursina «Kostyum tarihi» Toshkent «Uzbekiston»
4. Hasanboeva G.K. Kro`mova O.I. «Kiyim modelini ishlash va konsruktsiyasini tayyorlash» Toshkent – ukituvchi 1990.

### KELAJAK UCHUN REJA

O'z garderobingizga nazar sola turib, siz kiyib yuradigan kiyimlaringizdan ko'ra ko'proq buyumlaringiz mavjudligi haqida bilib olasiz. Quyidagi royhat asosida kiyimlaringiz hayotingizga mos kelishiga harakat qilib ko'ring.



### Doira diogrammasi

Ikkita doira diogrammasini chizing. Birinchi diogrammani kun davomida bajaradigan ishlaringiz rejimi miqdoriga qarab quyidagi kategoriyalar boyicha bo'laklarga bo'ling:

- Ish;
- Uy/ bolalarga qarash;
- Muloqot/ dam olish;
- Bo'sh vaqt/ xobbi;
- Komandirovka/ sayoxat.

Ikkinchi diogrammani garderobingizdagi kiyimlarni yuqorida keltirilgan kategoriyalar boyicha teng miqdorda bo'laklarga bo'lib chiqing.

Agar hayotingizning yarim ishxonada o'tsa, garderobingizdagi buyumlarning 50 % (foiz)ini ishxonada kiyadigan ish kiyimingiz tashkil etishi lozim.





Quyida keltirilgan namunadagi royxatdan foydalanib, o'zingizda mavjud buyumlarni fasinini va rangini belgilab chiqing. Bu yo'l bilan siz har tomonlama qulay garderobgga ega bo'lish uchun qanday buyumlarni qo'lga kiritishingiz zarurligini aniqlay olasiz.

	<b>Mavjud rang</b>	<b>Mavjud fasonlar</b>	<b>Zarur ranglar</b>	<b>Zarur fasonlar</b>	<b>Kelajak uchun reja</b>
<b>Jaket</b>					
<b>Yubka</b>					
<b>Shim</b>					
<b>Kofta</b>					
<b>Koylak</b>					
<b>Palto</b>					
<b>Kurtka</b>					
<b>Tufli</b>					
<b>Sumka</b>					
<b>Sharf</b>					
<b>Kamar</b>					
<b>Bujeteriya</b>					

## 8-Labaratoriya

### Kastyum kompozitsiyasida ranglarning ro'li

#### Reja

13. Kastyum kompozitsiyasida ranglarning ro'li.
14. Kastyum kompozitsiyasini yaratishda ranglar monandligi.
15. Xromatik ranglarning ikki rangli monandligi
16. Axromatik ranglarning ikki rangli birga qo'shilganidagi monandligi.
17. Xromatik va axromatik ranglarning birga qo'shilgandagi monandligi.
18. Neytral ranglar va oqishlilik kontrasti.

«Если женщина плохо одета, окружающие запомнят ее одежду. Если женщина одета хорошо, окружающие запомнят ее саму». Коко Шанель

**Ranglarning gavidani o'zgartirib ko'rsatish xususiyati ham bor.** Gavidani iliq (sarg'ish qizil va sarg'ish yashil) ranglar yaqinlashtirib va kattalashtirib ko'rsatadi. Sovuq (ko'kish qizil va ko'kish yashil) ranglar uzoqlashtirib va kichriytirib ko'rsatadi. Qora rang gavidani maksimal uzoqlashtirib va kichraytirib, oq esa maksimal yaqinlashtirib va kattalashtirib ko'rsatadi.

**Kastyum kompozitsiyasini yaratishda ranglar monandligi** (garmoniyasi) katta ahamiyatga ega. Kiyimda ko'pincha monoxrom (yakkarangli) birga qo'shilishlar uchraydi - bu rang tusi jixatdan bir xil, lekin oqishligi xar xil ranglarning birga qo'shilib kelishi.

**Xromatik ranglarning ikki rangli monandligi** quyidagi printsplarda yuzaga keladi:

— o'xshash ranglar - bir xil asosiy ranglardan xosil bo'lgan va ranglar doirasining bir choragidagi ranglarning birga qo'shilgani;

— kontrast ranglar - xar xil asosiy ranglardan xosil bo'lgan va ranglar doirasining qarama-qarshi turgan choraklaridagi ranglarning (sarg'ish qizil bilan ko'kish yashilning va ko'kish qizil bilan sarg'ish yashilning) biriga qo'shilgani;

— o'xshash kontrast ranglar - bitta mushtarak asosiy rang va ranglar doirasining yonma-yon choraklaridagi kontrast asosiy ranglari bor ranglar, sarg'ish qizil bilan ko'kish qizil, ko'kish qizil bilan ko'kish yashillar, ko'kish yashil bilan sarg'ish yashillar va sarg'ish yashil bilan sarg'ish qizillar) birga qo'shilgani;

— ko'p rangli monandlik uchburchak va to'g'riburchak printsipida tuziladi.

**Axromatik ranglarning ikki rangli birga qo'shilganidagi monandlik** kontrastlik va nyuans printsipida, uch rangli birga qo'shilganlikdagi monandlik esa miqdor va sifat jixatidan o'zaro turli nisbatlar asosida tuziladi. Masalan, ko'plab oqish ranglar bilan oqishligi unga yaqin o'rtacha va kam daraja odmi rangdan.

**Xromatik va axromatik ranglarning birga qo'shilgani** kiyim kompozitsiyasida juda ifodali bo'lib chiqadi. Oq rang sof xromatik rang tusining kuchi va jarangdorligi yuzaga keladi-da, bayramona manzaralilik xissi tug'iladi; oq rang bilan mayin ranglar (oq-xavo rang, oq bargikaram va boshqalar) uzviy va osongina qo'shilib, soflilik va bashanglik hissini yuzaga ketiradi.

Qora bilan sof xromatik rang birga qo'shilib, ko'zga tashlanib turadigan va keskin ko'rinadigan ranglar xosil qiladi. Qora rang tusinig yorqinligini va sofligini bir qadar kamaytirish xususiyatiga ega.

Oraliq ranglar ham xuddi shu qonuniyatga boysunadi. Monandlik umuman birlashadigan ranglarning miqdoriga ham, sifatiga ham bog'liq.

Ranglar kompozitsiyasini ishlab chiqayotganda ranglarning baravar kontrastligi xodisasini - rangning unga tegib turgan va uni o'rab turgan ranglarga bog'lik o'zgarib ko'rinishini xisobga olish kerak. Bunda xromatik kontrast va oqishlilik kontrasti bo'ladi. Masalan, sariq limon qizil dasturxonda to'q sariq tusga kiradi, sariq dasturxon ustida esa ochroq sariq bo'lib ko'rinadi. Atrofdagi ranglar ta'sirida rang oqishlilikining o'zgarishi **oqishlilik kontrasti** deyiladi. Masalan limon odmi dasturxonda ochroq, oq dasturxonda esa to'qroq rangli ko'rinadi.

Tegishib turgan ranglar bilan o'zaro ta'siri yo'q ranglar **neytral ranglar** deyiladi. Kulrang, ko'kimtir kulrang, yashilroq kulrang va boshqa ranglar ana shu ranglarga kiradi. Baravar kontrastlik xodisasini xisobga olish bet, ko'z, soch rangiga moslab kiyim rangini tanlashda juda muxim. Nomaqbul rang kontrasti bo'lib qolsa,

bet bilan kiyim orasiga neytral rangli yoka, bezak gazlama, sharf, ro'mol va boshqa ko'rinishdagi neytral rangli yo'l qoyish kerak.

Rang idrok etish sun'iy yoritish, materiallarning fakturasi va zichligi qandayligiga qarab o'zgaradi. Ranglar turli xil yoritishda turlicha ko'rinadi, tabiiy yorug'lik ta'sirida ranglar asl xolicha ko'rinsa, sun'iy yoritishda, yoritgich turiga qarab xiraroq yoki yorqinroq ko'rinishi mumkin. Shuningdek materialning fakturasiga qarab ham ranglar turlicha idrok etiladi, masalan, yupqa, xarir gazlamalar ochroq ko'rinsa, qalin, zich to'qilgan va tukli gazlamalar to'q ko'rinadi. Sirti yaltiroq ipak gazlamalar va tukli gazlamalar yorug'likning qaysi tomondan tushishiga qarab, turlicha tovlanadi, hamda tuklarining yo'nilishiga qarab ham bitta gazlamaning o'zi ham to'qroq yoki ochroq ko'rinadi.





### Nazorat savollari:

1. Kostyum kompozitsiyasida ranglarning ro'li.
2. Kostyum kompozitsiyasini yaratishda ranglar monandligi.
3. Xromatik ranglarning ikki rangli monandligi
4. Axromatik ranglarning ikki rangli birga qo'shilganidagi monandligi.
5. Xromatik va axromatik ranglarning birga qo'shilgandagi monandligi.
6. Neytral ranglar va oqishlilik kontrasti.

### Uyga vazifa.

25. Kostyum kompozitsiyasini yaratishda kontrast ranglar monandligiga 2 ta model.
26. Kostyum kompozitsiyasini yaratishda issiq-sovuq ranglar monandligiga 2 ta model.
27. Kostyum kompozitsiyasini yaratishda xromatik-axromatik ranglar monandligiga 2 ta model.

### Adabiyotlar.

1. Parmon F.M. Kompozitsiya kostyumam M: 1997 16-18 s
2. Stamerov K.K. Istoriya kostyuma Iast 1 Kiev-Nauka, 1978
3. Hasanboeva G.K. V.A. Chursina «Kostyum tarihi» Toshkent «Uzbekiston»
4. Hasanboeva G.K. Kro'mova O.I. «Kiyim modelini ishlash va konsruktsiyasini tayyorlash» Toshkent – ukituvchi 1990.

### 9 – labaratoriya mashg'uloti (2 soat)

# Kostyum kompozitsiyasida materialning xususiyatlari va fakturasi

### Reja:

1. Materiallarning plastik va manzarali xususiyatlari.
2. Materiallarning rasmi va fakturasi.
3. Material naqsh gulidan amalda foydalanish.

#### Ishning maqsadi:

1. Kostyum kompozitsiyasida materialning xususiyatlari va fakturasi mohiyatini o'rganish.
2. Materiallarning plastik va manzarali xususiyatlari bilan tanishish.
3. Materiallarning rasmi va fakturasi haqida tushunchaga ega bo'lish.
4. Material naqsh gulidan amalda foydalanish.

#### Ishning mazmuni:

1. Kostyum kompozitsiyasida materialning xususiyatlari va fakturasi bilan tanishish.
2. Materiallarning plastik va manzarali xususiyatlari o'rganish.
3. Materiallarning rasmi va fakturasi bilan tanishish.
4. Material naqsh gulini amalda qo'llashni o'rganish.



### **Ishni bajarishga tayyorgarlik uchun savollar:**

1. Kostyum kompozitsiyasida materialning xususiyatlari va fakturasi nimadan iborat?
2. Materiallarning plastik va manzarali xususiyatlari qanday?
3. Materiallarning rasmi va fakturasi qanday?
4. Material naqsh gulidan amalda qanday qo'llaniladi?

**Asbob-uskuna va qo'llanmalar:** namunalari, ishlov berilgan material namunalari, korgazmali qurollar va tarqatma materiallar..

### **Adabiyotlar:**

1. Parmon F.M. Kompozitsiya kostyumam M: 1997 16-18 s
2. Stamerov K.K. Istoriya kostyuma Iast 1 Kiev-Nauka, 1978
3. Hasanboeva G.K. V.A. Chursina «Kostyum tarihi» Toshkent «Uzbekiston»
4. Hasanboeva G.K. Kro'mova O.I. «Kiyim modelini ishlash va konsruksiyasini tayyorlash» Toshkent – O'qituvchi 1990.

### **Metodik ko'rsatmalar**

#### **Kostyum kompozitsiyasidagi materiallar va dekor.**

Kiyimni xajmli shakl deb qaralganda uning qanday materialdan tikilganligini bilish kerak (gazlamalar, trikataj, mo`yna, charm, zamcharm (zamsha), noto`qima materiallar qavat gazlamalar, plyonka, yog'och, plastmassa, shisha va boshqalar).

Bu materiallardan har birining o`z plastik xususiyatlari (mayinlik, osiluvchanlik, dag'allik va shu kabilar), dekarativligi (faktura, rang, naqsh gul), fizik mexanik xususiyatlari (zichlik, qayishqoqlik, cho`ziluvchanlik, kirishuvchanlik, titiluvchanlik va boshqalar) va gigiyenik xususiyatlari (havo o'tkazuvchanlik, nam o'tkazuvchanlik, chang o'tkazuvchanlik issiqlik o'tkazuvchanlik va hokazo) bo'lib, shaklning xarakteri va konstruktivlik yechim qanday xal etilishini shu xususiyatlar belgilab beradi.

Masalan, harir shifon gazlamalar mayin, osiluvchan, drapirovkabop bo'ladi, shuning uchun ulardan choklari minimal darajada kam, yumshoq ovalsimon shakl yaratish kerak bunda drapirovkalar, buyumlar, mayin taxlamlar, klyosh bichiq hisobiga shakl hosil qilinadi; yiltiroq tashlanib turadigan (krepsatin tipidagi) gazlamalarning drapirovkabop ekanligi yetarli darajada xajmli, gavda boylab «*sirpanib*» osilib turgan kiyim tikish imkonini beradi, gazlamaning jimirlashi uning yuqoridagi xususiyatlarini kuchaytirib ko'rsatadi; sintetika aralash jun gazlamalardan juda aniq, qat'iy geometrik shakldagi buyumlar tikiladi.

Fizik-mexanik xususiyatlarini bilish to`g`ri shakl berish uchun ham (masalan, trikatajning cho`ziluvchanligi kishi gavdasiga yopishib turadigan kiyim tikish imkonini beradi), zarurat bo`lganda tikishdan oldin materiallarni dekatirovka qilib olish (namlab-isitib ishlov berib, kirishmaydigan qilib olish) uchun ham imkon beradi.

Materiallarning gigiyenik xususiyatlari ham kiyim shaklini hosil qilishga ta`sir etadi. Masalan, havo o'tkazishi va nam o'tkazishi yomon materiallardan bo`lgan kiyimlarni, kiyim tagidagi havo ventilyatsiya bo`lib turishi uchun, gavdaga yopishmaydigan ochiq shaklli qilib tikish tavsiya etiladi.

Gazlamalarning dekarativ xususiyatlari shaklning geometrik ko`rinishini tanlashgina emas balki shakl hosil qilish printsiplarini ham, shakldagi ichki yechimlarini tanlashda ham katta ahamiyatga ega.

**Faktura** materialning eng ifodali xususiyatlaridan biri hisoblanadi. U seziluvchan informatsiya manbai bo`lib xizmat qiladi.

**Faktura** - bu material yuzasining tuzilishini xarakterlovchi xususiyat. Faktura tabiiy (mo`yna, teri, yog'och, zamsha va boshqalar) va mexanik yo'l bilan olingan hosila bo'ladi. Materiallar silliq, g'adir-budur, yaltiroq, xira, tukli va hokazo fakturali bo`lishi mumkin. Hosila fakturaning xarakteri materialning qanday usulda (to`qimachilikda, to`r to`qish, trikotaj va hokazo) olinganiga, yuzasidagi bo`rtiq qismlarining baland-pastligini va iplarining material zichligini belgilaydigan chalishish xarakteriga bog`liq. Satx birligiga to`g`ri keladigan faktura elementlarning katta kichigligi va miqdoriga qarab materialning yuzasi ifodaliligi jihatdan har xil bo'ladi.



Har bir fakturada badiiy obraz belgilari bo`ladi. Faktura sovuqlik va iliqlik, yengillik va vazminlik va boshqa taassurotlar hosil qilishi mumkin.

Faktura tanlashda mavsum, kiyimning nimaga mo`ljallangani, odamning jinsi, yoshi va gavda tuzilishi turi hisobga olinishi kerak. Kechqurungi bashang kiyimlarga oliyjanob yaltillaydigan sidirg`a materiallar ishlatiladi, lekin olachipor gazlamalar zinxor-bazinxor to`g`ri kelmaydi.

Gazlamaning faktura xususiyatlari umuman shaklni va uning qismlarini idrok qilishda ko`z aldanishi paydo bo`lishiga ta`sir ko`rsatishi mumkin. Masalan, ko`rinishi vazmin, xira, tukli fakturalar shaklni kattalashtirib ko`rsatadi.

Faktura xususiyatiga yetarli e`tibor bermaslik ko`pincha bitta kiyimda turli materiallar noqulay birga qo`shilib qolishiga olib keladi, bu shaklni bo`linib va nomonant ko`rinadigan qilib qoyadi. Badiiy reja va yechimlar turliligi sababli, ekspluatatsion, texnologik yoki iqtisodiy zarurat boisidan bitta kiyimda har xil fakturalar ishlatish mumkin. Bunda biror kiyimda ham, umuman kostyumda ham fakturalarning sifat va miqdor jihatdan birga qo`shilishlarini bo`rttirib ko`rsatgan ma`qul.



Shaklning va umuman gavdaning idrok etilishida naqsh gulning muhim ahamiyati bor. Shaklni naqsh guldan ajratib bo`lmaydi. Hamonki shaklda naqsh gul bor ekan, demak naqsh gul shaklning zarur komponenti bir qism bo`lib turadi. Naqsh gulning ham kostyum singari ko`p asrli tarixi, xalqlarga, millatlarga mansubligi bor.



Materiallarning ko`pdan-ko`p xil gullarini quyidagi dekorativ mativlar ko`rinishida bo`ladi deb qarash mumkin:

1. Buyumlar mativlari.
2. Fantostik mativlari.
3. Syudjet mavzular.
4. Abstrakt yoki geometrik mativlar.
5. Realistik yoki predmetli mativlar (o'simliklar xayvonlar va predmetlar).
6. Aralash mativlardan iborat rasmlar juda ko`p ishlatiladi.



xajmli bo`lishi mumkin.

Naqsh gul yuzani bir tekis to`ldirib turishi (*motor*-harakatlantiruvchi yoki *rapport*-takrorlanuvchi bo`lishi) mumkin, yoxud muayyan uchaskalarda joylashgan (*kupon* xolidagi yoki *xoshiyadagi*) bo`lishi mumkin.

Rasm mayda, o`rtacha, yirik bo`lishi mumkin.



Turli kiyim turlarini

modellashtirishda naqsh gul tanlashga jiddiy munosabatda bo`lish kerak va naqsh gul xarakteri bilan xususiyatlarini jins-yoshga, gavda tuzilishining tipiga, kiyim nimaga va qaysi mavsumga mo`ljallanganiga, tikish metodiga qarab hisobga olish kerak.

Bolalar kiyimidagi naqsh gul kompozitsiyasi ayniqsa aniq ravshan, tushunish oson, ko`pincha qiziq-qiziq rasmlar bo`lishi kerak, chunki bolalar kiyimidagi naqsh gulining faqat estetik emas, balki bilim ortirish vazifasi ham bor.

Katta yoshli kishilar mayda va o`rtacha gulli, bosiqroq bo`g`iq tusni ma`qul ko`rishadi.

Tasviriy mativlarning, razmeriga bog`liq rang va tus yechimlarining va rasm joylashtirilishining eng emotsional jarangdorligi, ifodaliligi, xilma-xilligi yoshlarning kiyimida bo`ladi deb hisoblanadi.

Kundalik kiyimda mayda va o`rtacha gulli gazlama ishlatiladi, bordi-yu, gazlama yirik gulli bo`lsa, unda gullar sokin kaloritli bo`lishi kerak. bashang kiyimlarda va istroxat kiyimlarida rasmlar diopazoni juda keng bo`ladi.

Rasmi murakkab (rasmi yirik, rapporti katta, rasmi yo`nalishi, kupon holatidagi yoki xoshiyadagi) materiallardan kiyim modellashtirilgan hamma detallarda rasmlar yo`nalishi bir tomonga qarab bo`lishini, o`q chiziqlarining joylanishini, umumiy rang yechimini hisobga olish kerak. Kiyimni bichayotganda juft detallarda, vitochkalarda, choklarda rasmlar mos kelishini, detallar chokida rapport saqlanishi nazorat qilib borishi kerak .

Naqsh gulli materiallarda turli chiziqlar, bo`rtma choklar, drapirovkalar, mayda detallar kam seziladigan bo`lgani uchun ular ifodali chiqmasligini yodda tutish kerak. Ularni ko`rinarli qilish uchun sidirg`a gazlamadan mag`iz, tasma va hokazolar qoyib qo`shimcha bezash kerak bo`ladi.

### **Tayanch iboralar:**

Struktura, faktura, naqsh,.

### **Nazorat savollari.**

1. Materiallarning fizik-mexanik xususiyatlarini bilishni nima ahamiyati bor?
2. Faktura nima?
3. Faktura qanday taassurotlarni hosil qilishi mumkin?
4. Hozirgi kunda keng foydalanib kelinayotgan dekorativ bezaklarning qanday turlarini bilasiz?

### **Uyga vazifa.**

1. Realistik yoki predmetli mativlar (o`simliklar xayvonlar va predmetlar)iga 1 ta model.
2. Abstrakt yoki geometrik mativlariga 1 ta model.
3. Aralash mativlarga 1 ta model.
4. Buyumlar mativlariga 1 ta model.
5. Fantostik mativlariga 1 ta model.
6. Syudjetli yoki astral mativlarga 1 ta model.

### **10 – labaratoriya mashg`uloti.**

# **Kostyum kompozitsiyasida bezakning ahamiyati**

### **Reja:**

1. Kostyum kompozitsiyasida dekorativ bezak tushunchasi.
2. Kostyumda dekorativ bezakni qo`llanilishi.
3. Bezaklarni materiali va shakliga ko`ra guruhlash

### **Ishning maqsadi:**

5. Kostyum kompozitsiyasida bezakning ahamiyatini o`rganish.
6. Kostyum kompozitsiyasida dekorativ bezak tushunchasi bilan tanishish.
7. Kostyumda dekorativ bezakni qo`llanilishi haqida tushunchaga ega bo`lish.
8. Bezaklarni materiali va shakliga ko`ra guruhlashni o`rganish.

9. Bezaklardan amalda foydalanish.

### **Ishning mazmuni:**

5. Kostyum kompozitsiyasida bezakning ahamiyatini bilan tanishish.
6. Kostyum kompozitsiyasida dekorativ bezak tushunchasi bilan tanishish.
7. Kostyumda dekorativ bezakni qo'llanilishni o'rganish.
8. Bezaklarni materiali va shakliga ko'ra guruhlarni o'rganish.
9. Bezaklarni amalda qo'llay olish.

### **Ishni bajarishga tayyorgarlik uchun savollar:**

5. Kostyum kompozitsiyasida bezakning ahamiyatini qanday?
6. Kostyum kompozitsiyasida dekorativ bezak tushunchasi nimadan iborat?
7. Kostyumda dekorativ bezakni qo'llanilishi deganda nimani tushunasiz?
8. Bezaklarni materiali va shakliga ko'ra guruhlarni qanday amalgam oshiriladi va ular qaysilar?
9. Bezaklardan amalda qanday qo'llaniladi?

**Asbob-uskuna va qo'llanmalar:** namunalari, ishlov berilgan material namunalari, korgazmali qurollar va tarqatma materiallar..

### **Adabiyotlar:**

1. Parmon F.M. Kompozitsiya kostyumam M: 1997 16-18 s
2. Stamerov K.K. Istoriya kostyuma Iast 1 Kiev-Nauka, 1978
3. Hasanboeva G.K. V.A. Chursina «Kostyum tarihi» Toshkent «Uzbekiston»
4. Hasanboeva G.K. Kro'mova O.I. «Kiyim modelini ishlash va konsruksiyasini tayyorlash» Toshkent – O'qituvchi 1990.

**Kostyumdagi dekorativ bezak.** Bezak kompozitsiyaning mustaqil elementi emas, u qo'shimcha, ziynat bo'lib, kiyimda u yo'q bo'lishi ham mumkin.

Kiyim tarixining har qaysi bosqichiga o'z bezak turlari va ularni ishlatish usullari xos bo'ladi.

Kiyimni modellash tajribasida ishlatiladigan bezak turlari xilma-xil bo'lib, ular kompozitsiyadagi asosiy g'oya bo'lishi yoki kostyumdagi mo'ljallangan badiiy-obrazli niyatni kuchaytiradigan va boyitadigan bo'lishi mumkin. Bezakdan kiyim shaklini yoki uning bir qismini bo'rttirib, shaklini bo'laklarga ajratib ko'rsatish uchun foydalaniladi. Dekorativ bezakning dekorativ va konstruktiv ahamiyati (draperovka, bo'rtma burma, mayda taxlama, gofre, plisse, va hokazo) dekorativ va utilitar ahamiyati (belbog'lar, qoplama cho'ntaklar, tugmalar, furnitura va shu kabilar) va faqat dekorativ ahamiyati (kashtalar, qoyma burmalar, applikasiya va boshqalar) bo'lishi mumkin.

Bezak turini, uning joyini tanlash kiyimning turi va nimaga mo'ljallanganligiga, kiyim shakliga, materialning fakturasiga, jins-yosh omiliga, odam gavdasining turiga, gavdaning shaxsiy xususiyatlariga, insonning xarakteriga bog'liq.

Hozirgi son sanoqsiz bezaklarni materiali va shakliga binoan quyidagi gruppalariga ajratsa bo'ladi:

**1. Barcha turdagi bo'rttirma choklarni, taxlamalar bo'rtma burmalar, drapirovkalar, plissiy, gofre, bezak baxiya qatorlarni tikish natijasida hosil bo'ladigan bezaklar.**



**2. Kiyimni o'z materialidan yoki bezak gazlamadan yasalgan detallar yordamida bezash (qoyma burmalar, ikki tomonlama qoyma burmalar, aylana burmalar, beykalar, volanlar, mag'izlar, bo'rtma mag'izlar, bantlar, galstuklar, xlyastiklar, fatalar, pagonlar va hokazo).**




**3. Maxsus bezak materiallar (to'r, tasma, popuk, lentalar, gullar va boshqalar) yordamida bezash.**



**4. Furnitura (tugmalar, dekarativ pistonlar, bloklar-pistonlar, «molniyalalar» va boshqalar).**



**5. Kashta, qoplama bezak, emblemlar.**






Boshqa materiallar (mo`yna - teri, trikataj, zamsha, to`r palotno va hokazolar) yordamida bezash.



6. Kiyim detallarini bosma gul solib bezash.



### Nazorat savollari.

1. Dekorativ bezak nima?
2. Kiyimni modellash jarayonida dekorativ bezak turlaridan qanday maqsadlarda foydalaniladi?
3. Hozirgi kunda keng foydalanib kelinayotgan dekorativ bezaklarning qanday turlarini bilasiz?

### Uyga vazifa.

28. Barcha turdagi bo'rttirma choklarni, taxlamalar bo'rtma burmalar, drapirovkalar, plissiy, gofre, bezak baxiya qatorlarni tikish natijasida hosil bo'ladigan bezaklarga **1 ta model**.

29. Kiyimni o'z materialidan yoki bezak gazlamadan yasalgan detallar yordamida bezash (qoyma burmalar, ikki tomonlama qoyma burmalar, aylana burmalar, beykalar, volanlar, mag'izlar, bo'rtma mag'izlar, bantlar, galstuklar, xlyastiklar, fatalar, pagonlar va hokazo)ga **1 ta model**.

30. Maxsus bezak materiallar (to'r, tasma, popuk, lentalar, gullar va boshqalar) yordamida bezashga **1 ta model**.

31. Furnitura (tugmalar, dekarativ pistonlar, blokklar-pistonlar, «molniyalar» va boshqalar)ga **1 ta model**.

32. Kashta, qoplama bezak, emblemalarga **1 ta model**.

33. Boshqa materiallar (mo'yna - teri, trikataj, zamsha, to'r palotno va hokazolar) yordamida bezashga **1 ta model**

34. Kiyim detallarini bosma gul solib bezashga **1 ta model**

### 11-Labaratoriya mashg'uloti.

### Kostyum kompozitsiyasida illyuziyalar.

#### Reja

10. Kostyum kompozitsiyasida illyuziyaning ro'li.
11. Vertikal yo'nalishni idrok qilishdagi ko'z aldanish.
12. To'ldirilgan oraliqni idrok qilishdagi aldanish.
13. O'tkir burchakni idrok qilishdagi aldanish.
14. Ranglarni idrok qilishdagi aldanish.

#### Ishning maqsadi:

10. Kostyum kompozitsiyasida illyuziya mohiyatini o'rganish.
11. Kostyum kompozitsiyasida illyuziyaning ro'li bilan tanishish.
12. Vertikal yo'nalishni idrok qilishdagi ko'z aldanish haqida tushunchaga ega bo'lish.
13. To'ldirilgan oraliqni idrok qilishdagi aldanishni o'rganish.
14. O'tkir burchakni idrok qilishdagi aldanish haqida tushunchaga ega bo'lish.
15. Ranglarni idrok qilishdagi aldanish mohiyati bilan tanishish.
16. Illyuzadan amalda foydalanish.

#### Ishning mazmuni:

1. Kostyum kompozitsiyasida illyuziya mohiyatini o'rganish.
2. Kostyum kompozitsiyasida illyuziyaning ro'li bilan tanishish.
3. Vertikal yo'nalishni idrok qilishdagi ko'z aldanish haqida tushunchaga ega bo'lish.
4. To'ldirilgan oraliqni idrok qilishdagi aldanishni o'rganish.
5. O'tkir burchakni idrok qilishdagi aldanish haqida tushunchaga ega bo'lish.
6. Ranglarni idrok qilishdagi aldanish bilan tanishish.
7. Illyuzadan amalda foydalanish.

#### Ishni bajarishga tayyorgarlik uchun savollar:

1. Kostyum kompozitsiyasida illyuziya nima?
2. Kastyum kompozitsiyasida illyuziyaning ro'li qanday?
3. Vertikal yo'nalishni idrok qilishdagi ko'z aldanish deganda nimani tushunasiz?
4. To'ldirilgan oraliqni idrok qilishdagi aldanishga misol keltiring.
5. O'tkir burchakni idrok qilishdagi aldanish haqida qanday tushunchaga egasiz?
6. Ranglarni idrok qilishdagi aldanish mohiyati bilasizmi?
7. Illyuzaga misollar keltiring.


**Asbob-uskuna va qo'llanmalar:** namunalari, ishlov berilgan material namunalari, korgazmali qurollar va tarqatma materiallar..

### Adabiyotlar:

1. Parmon F.M. Kompozitsiya kostyumam M: 1997 16-18 s
2. Stamerov K.K. Istoriya kostyuma Iast 1 Kiev-Nauka, 1978
3. Hasanboeva G.K. V.A. Chursina «Kostyum tarihi» Toshkent «Uzbekiston»

Ranglarni, chiziqlar va burchaklar yo'nalishini, o'lchov forma, satx, masofa, oraliq va xokazolarni idrok qilishda ko'zning aldanishidan xam kiyimda foydalaniladi. Idrok qilishdagi aldanish quyidagi turlarga ajratiladi: formani ikki o'lchovda idrok qilishdagi aldanish, uchinchi o'lchovni idrok qilishdagi aldanish, rangni idrok qilishdagi aldanish ( bu xolda forma o'zgaradi) va xokazo. Kiyimni loyixalashda ko'zning yuqorida aytib o'tilgan aldanishlaridan, ya'ni illyuziyalar gruppasidan turlicha foydalaniladi.


**Vertikal yo'nalishni idrok qilishdagi ko'z aldanish** shundan iboratki, vertikal chiziq xuddi shunday uzunlikdagi gorizontaal chiziqdan uzunroq bo'lib ko'rinadi. Shu bilan birga, yuqorida joylashgan detal pastda joylashgan shunday o'lchamdagi detaldan kattaroq bo'lib ko'rinadi.



**39-** rasm. Tekislikdagi to'ldirilgan oraliqni idrok qilishdagi ko'z aldanish.

To'ldirilgan oraliqni idrok qilishdagi aldanish shundan iboratki, ichi chiziqlar bilan to'ldirilgan qismlar xuddi shunday xajmdagi, lekin ichi bo'sh qismlardan kattaroq bo'lib ko'rinadi. Agar shu qismni to'ldirib turgan chiziqlar zich joylashgan va ko'p miqdorda bo'lsa, ko'z xaqiqatdan ham aldanadi: lekin soni kam yoki chiziqlar siyrak


joylashgan taqdirda teskari taasurot tug'iladi. Kiyimda boyni, beli, yelka va xokazolarni balandroq yoki pastroq, uzunroq yoki qisqaroq qilib ko'rsatish uchun ko'zning ana shunday aldanishidan foydalaniladi.



40- rasm. Kiyimda to'ldirilgan oraliqni idrok qilishdagi ko'z aldanishi




41-rasm. Kesmani to'g'ri chiziq bilan bo'lishdagi ko'z aldanishi




41- rasm. Ko'zning aldanishi: a - vertikal chiziqlarni idrok qilishda; b - masofani idrok qilishda; v - o'tkir burchakni idrok qilishda; g, d- tekislash (to'g'rilash)da

Gavdaning ko'zga yaqqol tashlanib turadigan qismida detallarni ko'paytirib yuborish yaramaydi, aks xolda bu yerdagi o'lcham yanada kattaroq bo'lib ko'rinadi. Bunday xollarda «psixologik plan faktori» rol oynaydi.

**O'tkir burchakni idrok qilishdagi aldanish.** Odatda o'tkir burchakning tomonlari orasidagi kichik masofa ko'zga kattaroq bo'lib, to'mtoq burchaklarning tomonlari orasidagi katta masofa esa, aksincha, mavjud masofadan kichikroq bo'lib ko'rinadi. Gavdaning bir qismini boshqa qismidan kengroq va kichikroq qilib ko'rsatish kerak bo'lganda ko'zning o'tkir burchakni idrok qilish xususiyatidan foydalanish mumkin. Masalan, yelkalar serbar bo'lib ko'rinishi uchun yoqa o'mizini V- simon (o'tkir burchak shaklida) oyish kerak.




**42-** rasm. Kiyimda o'tkir burchakni idrok qilishdagi aldanish



**43-** rasm. Kiyim qismlarida va detallarida o'tkir burchakni idrok qilishdagi aldanish.


Kontrast va tekislash qonuniyatlarini xam nazarda tutish lozim. Kontrastlar diqqatni o'ziga jalb etadi, esda qoladi va xis-tuyg'ularimizga kuchli ta'sir ko'rsatadi. Odatda katta burchaklar bilan o'rab olingan burchak kichik burchaklar bilan o'rab olingan xuddi shunday o'lchamdagi burchakdan kichikroq bo'lib ko'rinadi. Boylari bab-baravar bo'lgan ikki kishi yonma-yon turganda ozg'inroq kishining boyi balandroq bo'lib ko'rinadi. Boshlarining kattaligi bir-xil bo'lgan ikki kishidan biri katta o'lchamli bosh kiyimi kiysa va ikkinchisining bosh kiyimi kichkina va tor bo'lsa, mana shu ikkinchi kishining boshi kattarak bo'lib ko'rinadi. Agar kiyimning yoqasi boyniga yopishib turmasa, ingichka boyn yanada ingichkaroq bo'lib ko'rinadi. Kiyimning beli chippa yopishib turganda (belbog' tortib bog'langanda) yo'g'on bo'ksa qismi yanada yo'g'onroq bo'lib ko'rinadi. Shunga ko'ra gavdaning biror xususiyati

kamroq seziladigan bo'lishi uchun kiyimda juda kontrast detallar ishlatilmasligi kerak.



**44-rasm.**  
Assimetriyani  
optik bekitish

va kuchaytirish.



**45-rasm. Kontrast va o'tkir burchakni idrok etishdagi ko'z aldanish.**




**45-** rasm. Tekislashda roy beradigan ko'z aldanish.

Tekislash (baravarlash)da roy beradigan aldanish (illyuziya podravnivaniya). Gavdaning

biror xususiyatini bo'rttirib ko'rsatish (yoki niqoblash) uchun bu xususiyatini takrorlaydigan va orttiradigan shakl qo'llanilganda ko'zning ana shunday aldanishi yuz beradi. Masalan, semiz kishi keng kiyim kiysa u yanada to'laroq ko'rinadi va aksincha. To'g'ri chiziqning uchlaridagi burchaklar orasidagi masofaning o'zgarishi ko'rinib turadigan o'lchamining kattaroq yoki kichikroq bo'lib idrok etilishiga (tekislash illyuziyasi sodir bo'lishiga) yordam beradi, chiziqning ichkariga qaratilgan burchaklar oralig'idagi qismi tashqariga qaratilgan burchaklar oralig'idagi bir xil uzunlikdagi qismidan qisqaroq ko'rinadi. Agar boshdan pastga qaratib tortilgan chiziqlar qiya, oyoqdan tepaga qaratib tortilganlari to'g'ri bo'lsa, odamning jussasi kalta bo'lib ko'rinadi; chiziqlar buning aksicha chizilganida kishining boyi balandlashgandek tuyuladi. Demak, kontrast gavdaning muayyan xususiyatini kuchaytiradi va diqqatni o'ziga jalb etadi, formadagi o'xshashlik esa bu xususiyatini kamroq seziladigan qiladi. Ikkinchi tomondan olganda, o'xshashlik xam o'z ta'sirini ko'rsatadi: o'xshash xususiyatlarni kuchaytiradi va ularning bir xilligiga diqqatini jalb etadi.

Ko'z aldanishlarda diqqatni to'g'ri yo'naltirish xam muxim ahamiyatga ega. Bunga chiziqlar, detallarning ritmi va bezagi, konturlarini to'g'ri joylashtirish orqali erishish mumkin. Agar chiziqlar kiyimning yuqori qismida kesishadigan bo'lsa, gavda baland ko'rinadi (47-rasm, a), chiziqlar qancha pastda kesishsa, gavda xam past ko'rinadi (47-rasm, b). Chiziqlar bir-biridan ma'lum masofa oralig'ida kesishadigan bo'lsa, gavda (47-rasm, a)ga nisbatan pastroq, (47-rasm, b)ga nisbatan esa balandroq ko'rinadi.

Ko'zga tashlanib turuvchi, oqishroq detallar kiyimning yon tomonlarida joylashadigan bo'lsa, gavda to'laroq ko'rinadi va aksincha to'q rangli qo'lqop, poyafzal, shlyapa boyni baland ko'rsatadi.



47-rasm. Kostyumda chiziqlar kesishish nuqtalarining joylashuvi.

**Ranglarning idrok qilishdagi aldanish.** Yuzaning egrilik darajasiga qarab ranglar xar hil idrok qilinishi mumkun; masalan, botiq, qiyshiq, yuzalar ranglarni yig'adi, bo'rttirib ko'rsatadi; qavariq, do'mboq shakllar ayrim joylarda ranglarni kuchsizlantiradi. Ko'zimiz buyumning qayerda turganligiga va yorug'lik manbaiga qarab, ranglarning o'zgarishidagi arang sezilarli farkni xam ko'rish: materiallarni, yorug'likni qaytarish va sindirish xossasiga qarab, bir-biridan farq qilish mumkin; masalan, duxoba, tukli (paxmoq) materialarnikiga qaraganda yorqinroq (toyinganroq) bo'lib ko'rinadi.

Ikki xil rang (axromatik va xromatik ranglar)ning aralashuvidan xosil bo'ladigan chetli kontrast ranglar illyuziyasining ajoyib ko'rinishlaridan biridir. Bu xodisa takkoslanayotganda ranglar chetida ularga bir xil kelmaydigan rang paydo bo'lishidan iborat.

Ravshan, toyingan, yoqimli (iliq) ranglar kamroq toyingan, xira, sovuq ranglarga qaraganda masofani yaqinroq qilib ko'rsatadi.

Ranglarning baravar kontrasti deb yuritiladigan xodisa xam mavjud. Bu xodisa shundan iboratki, yonma-yon turgan ranglar muxitga qarab tusini o'zgartiradi. Masalan, kontrast ranglar yonma-yon tursa, ularning kontrastligi (bir xil kelmasligi) kuchayadi. Kulrang qora fon ustida ochroq bo'lib, kamroq toyingan ranglar yanada xiraroq bo'lib ko'rinadi. Och ranglar xajmni kattalashtirib, to'q ranglar esa kichiklashtirib ko'rsatadi. Och va toyingan, yorqin rang gazlamadan tikilgan kiyimda jussa kattaroq bo'lib ko'rinadi. Qizil va sariq ranglar jussani kattalashtirib ko'rsatadi, goyo oldinroqda ko'radi va qiyofani ko'zga yaqqol tashlanib turadigan qiladi. Qora rang jussaning konturlarini ochiq-oydin ko'rsatadi.

#### **Nazorat savollari:**

1. Kastyum kompozitsiyasida illyuziyaning ro'li.
2. Vertikal yo'nalishni idrok qilishdagi ko'z aldanish.
3. To'ldirilgan oraliqni idrok qilishdagi aldanish.
4. O'tkir burchakni idrok qilishdagi aldanish.
5. Ranglarni idrok qilishdagi aldanish.

#### **Uyga vazifa.**

1. Kostyum kompozitsiyasini yaratishda vertikal yo'nalishni idrok qilishdagi ko'z aldanishiga 2 ta model.
2. Kostyum kompozitsiyasini yaratishda to'ldirilgan oraliqni idrok qilishdagi aldanishiga 2 ta model.
3. Kostyum kompozitsiyasini yaratishda o'tkir burchakni idrok qilishdagi aldanishiga 2 ta model.
4. Kostyum kompozitsiyasini yaratishda ranglarni idrok qilishdagi aldanishiga 2 ta model.